

Sinf: 4

Fan: Tabiatshunoslik

Mavzu: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TABIIY XARITASI

- Darsning ta’limiy maqsadi:** Quruqlikning asosiy shakllaridan tekisliklar, pasttekisliklar, materiklar hamda okean botiqliklari haqida bilimlar berish.
- Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O‘zbekiston Respublikasining yer sathini tabiiy xaritadan tushuntirish orqali Vatanimizning tabiati go‘zalligini anglatish.
- Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O‘zbekiston Respublikasidagi tog‘ va tekisliklar bilan tanishtirish.
- Darsning turi:** noan’anaviy.
- Darsda qo‘llaniladigan metod:** bahs-munozara, «Klaster» interfaol metod, kichik guruhlarda ishlash
- Darsning jihozlari:** rangli rasmlar, maket, xaritalar, rangli maketlar, tayyorlangan slaydlar, kompyuter, proyektor, ekran, vatmen qog‘ozlar.

Darsning borishi

- I. Tashkiliy qism.** Davomat aniqlanadi. Sinf o‘quvchilari 4 guruhga bo‘linib, har biri nomlanadi:
- 1- guruh — “Kamol”,
 - 2- guruh — “Humoxon”,
 - 3- guruh — “Kamolot”,
 - 4- guruh — “Kamalak”.



Har bir guruh a'zolari o'z guruhlarining sardori va o'rinbosarlarini saylashadi.

II. Uy vazifalarini tekshirish. Quyidagi savollar bo'yicha savol-javob o'tkaziladi:

1. Yer yuzida qanday materiklar bor?
2. Yer yuzidagi quruqliklar qanday asosiy shakllarga ega?
3. Tog' tizmalari deb nimaga aytiladi?
4. Tog'lar tabiiy xaritada qanday tasvirlanadi?
5. Yer yuzida eng baland cho'qqi haqida nimalarni bilasiz?

6. Tekisliklar balandligiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi? Ular tabiiy xaritada qanday tasvirlanadi?
7. Yer yuzidagi okeanlar qanday nomlanadi?
8. Okean botiqlari haqida nimalarni bilasiz?

Har bir savolga tez, aniq, qisqa va londa javob kerakligi uqtiriladi. Har bir guruh sardori va o‘rinbosarlariguruh tayyorlagan javoblarini doskaga chiqib izohlab beradilar.

Amaliy topshiriqning qanday bajarilganligi tekshiriladi.

Bilimlar va topshiriqning bajarilishi baholanadi.

III. Yangi mavzuning bayoni. Yangi mavzu e‘lon qilinadi:

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TABIIY XARITASI.

1-guruh — “Kamol”ga savol: **Pasttekislik nima? O‘zbekistonda qanday pasttekislik bor?**

Guruh javobi: Yarimsharlar tabiiy xaritasida butun Yer yuzining tuzilishi tasvirlangan bo‘ladi. Bunday xaritadan tashqari, alohida davlatlarning ham o‘z tabiiy xaritasi bo‘ladi. Shu singari O‘zbekiston Respublikasining tabiiy xaritasi ham mavjud (darslikdan 30- rasm). O‘lkamizning tabiiy xaritasini ko‘rib chiqaylik. Mamlakatimiz hududining g‘arbiy qismi xaritada asosan yashil va och yashil rangda tasvirlangan. Xaritaning pastki o‘ng ckekkasida berilgan shartli belgidan aniqlash mumkinki, yashil rangda tasvirlangan joylar balandligi 200 m gacha bo‘lgan pasttekisliklardir. Yurtimiz hududining g‘arb qismidagi katta maydonni egallagan pasttekislik Turon pasttekisligi deb ataladi. Xaritadan ko‘rish mumkinki, O‘zbekiston hududining yer sathi g‘arbdan sharqqa tomon ko‘tarilib boradi. Turon pasttekisligini sharq tomondan och sariq rangda tasvirlangan qirlar o‘rab turadi.

2-guruh — “Humoxon”ga savol: **Yassi tog‘lar nima? Tog‘ deb nimaga aytiladi? Qaysi yassi tog‘larni bilasiz, bular qayerlarda joylashgan?**

Zarafshon, Turkiston, Hisor, Boysuntov, Ko‘hitangtov, Bobotog‘, Nurota, Qurama, Piskom, Chotqol bu sozlar nimani anglatadi?

Guruh javobi: O‘zbekiston hududining sharqiy qismi xaritada ko‘proq jigarrangda tasvirlangan. Bu joylarning katta qismini turli balandlikdagi tog‘lar egallagan. O‘lkamiz hududida Zarafshon, Turkiston, Hisor, Boysuntog‘, Ko‘hitangtog‘, Bobotog‘, Nurota, Qurama, Piskom, Chotqol nomli tog‘ tizmalari mavjud. Tog‘lar orasida och sariq va och jigarrangda tasvirlangan qir va yassi tog‘lar mavjuddir. O‘zbekiston aholisi yashaydigan shahar, qishloqlarning katta qismi ham ana shu qir va yassa tog‘larga to‘g‘ri keladi. Bu yerlarda ekin ekiladigan dalalar, mevali bog‘lar katta maydonlarni tashkil etadi.




4- guruh — “Kamalak”ga savol: Tog‘ nima? Tog‘ cho‘qqisi nima? Tog‘ yon bag‘ri nima? Tog‘ etagi nima? Tog‘ vodiysi nima?

Guruh javobi: Har bir materikda tekis joylar — tekisliklar va baland ko‘tarilgan joylar — tog‘lar mavjud bo‘lib, tog‘ning eng baland bo‘lgan tepa qismi tog‘ cho‘qqisidir. Har bir tog‘ning yonlari bo‘lib uni tog‘ yonbag‘ri deymiz. Shu tog‘ yonbag‘irlarining pastki qisimlarini esa tog‘ etaklari deyiladi. Bu tog‘larning balandligi 1000 m dan oshadi. O‘lkamizdagi eng baland tog‘ cho‘qqisi Hisor tog‘ tizmasidagi Hazrati Sulton cho‘qqisi bo‘lib, uning balandligi 4688 metrga teng. Tog‘lar orasida och sariq va och jigarrangda tasvirlangan qir va yassi tog‘lar mavjud. Tog‘ tizmalari o‘ralig‘idagi pastlik tog‘ vodiysi deb ataladi. O‘lkamizdagi Farg‘ona vodiysi ana shunday tog‘ vodiysidir. Farg‘ona vodiysi Qurama, Chotqol, Farg‘ona, Oloy tog‘ tizmalari oralig‘ida joylashgan. Farg‘ona vodiysi asosan qir va yassi tog‘lardan iborat.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash. Quyidagi savollar bo‘yicha savol-javob mashqi o‘tkaziladi:

1. Mamlakatimiz hududining g‘arbiy qismi yer sathi tuzilishi qanday?
 2. Turon pasttekisligi qayerda joylashgan? Uni xaritadan ko‘rsatibbering.
 3. Qirlar va yassi tog‘lar o‘lkamiz hududining qayerlarida joylashgan?
 4. Tog‘lar o‘lkamiz hududining qaysi qismida joylasgan?
 5. O‘lkamiz hududida qanday tog‘ tizmalari mavjud?
 6. O‘zbekistonda eng baland tog‘ cho‘qqisi qayerda joylashgan va uning balandligi qancha?
 7. Tog‘ vodiysi deb nimaga aytiladi?
 8. Farg‘ona vodiysini qaysi tog‘ tizmalari o‘rab turadi?
- «O‘lkamizdagi tog‘ tizmalari» ga bag‘ishlangan “**Klaster**” interfaol metodidan foydalanib, o‘yin mashqi o‘tkaziladi.



O'quvchilar savollarga bergan javoblarini dars boshidan boshlab bergan javoblarini va ularning faolligini hisobga olib bilimlari ballar bilan baholanadi.

V. Uy vazifalari:

1. Darslikdagi mavzu oxiridagi savollarga javob topish va amaliy topshiriqni bajarish.
2. Darslikdagi 30- rasmda tasvirlangan O'zbekiston Respublikasi tabiiy xaritasidan foydalanib, o'lkamiz hududining yer sathi tuzilishini tahlil qilishni o'rganib kelish.

Sana:

Fan: Tabiatshunoslik

Mavzu: Yer shari. Globus.

Maqsad: O'quvchilarga yer shari , globus haqida ma'lumot berish;


Biz uchun aziz bo'lgan ona tuproqning qadriga yetishni, uni har bir qarichidan unumli foydalanishni, yer shari bo'ylab, joylashgan xalqlar madaniyatini hurmat qilish, do'stona aloqalar o'rnatishni tarbiyalash; tabiatshunoslik fani bo'yicha o'rgangan ma'lumotlarini hayotga tadbiiq eta olish ko'nikma, malakalarini rivojlantirish; birgalikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish;

Dars turi: aralashgan

Dars tipi: noan'anaviy


Dars uslubi: tushuntirish, ko'rgazmalilik, aqliy xujum, tarmoqlash, "topshiriqlar jamlanmasi" mashqi.

Dars jihozi: mavzuga oid ma'lumotlar, ko'rgazmali qurollar, yer sharining turli ko'rinishlari, globus, tarqatmalar, o'quvchilar uchun qog'oz va markerlar, slayd va electron darslik, kompyuter, ekran, atlas, yozuvsiz xarita.



Darsning borishi:

t/r	Dars bosqichlari	vaqti
1	Tashkiliy qism	2
2	O'tilgan mavzuni mustahkamlah	10
3	Yangi mavzu bayoni	18
4	Topshiriqlar jamlanmasi mashqi	6
5	Yangi mavzuni mustahkamlash	6
6	Uyga vazifa berish va baholash	3



I. Tashkiliy qism:

- a) Salomlashish
- b) Davomatni aniqlash
- c) O'quvchilarni darsga hozirlash
- d) "Dunyo bo'ylab" axborot daqiqasini o'tkazish

II. O'tgan darsni mustahkamlash:

O'qituvchi uyga berilgan "oy- yerning tabiiy yo'ldoshi" mavzusida suhbatlashiladi. O'quvchilarga "Aqliy xujum" savollari beriladi.


- Oy aslida nima o'zi?
- Oy haqida nimalarni bilib oldingiz?
- Oyning tabiiy yo'ldoshi nima?
- Oyda yashash mumkinmi?
- Oyda joylashgan dog'lar qanday hosil bo'ladi?
- Oyda yashash mumkinmi?
- Oy haqida ertak yoki she'rlar bilasizmi?

Shu kabi topshiriqlar berilib o'quvchilar bilimi baholanadi. "Oy yerning tabiiy yo'ldoshi" mavzusida olgan bilimlari mustahkamlanadi. Shundan so'ng o'quvchilar guruhlarlarga bo'linib oladilar.

I guruh- Oymomolar

II guruh- Quyoshjonlar

III guruh- Yulduzchalar



Guruhlar bajaradigan ishlar, oltin qoidalar eslatib o'tiladi. Faollik va tartib oltin qoidaning asosini tashkil etilishi eslatib o'tiladi.


III. Yangi mavzu bayoni:



O'quvchilarga atofimizda joylashgan yer yuzasining tuzilishi va bu boshqa davlatlarda qanday ekanligi, vaqtda qanday farq bo'lishi, ob-havodagi o'zgarishlar, farqlar haqida bahs- munozara tashkil etiladi. O'quvchilar bilgan ma'lumotlar umumlashtirilib, o'quvchilarga yangi mavzu bayon etiladi.

O'qituvchi hikoyasi:

- Yer shari turli ko'rinishda bo'ladi. Shunga ko'ra joylarda iqlim, yer yuzasi tuzilishida farqlar mavjud bo'ladi. Biz avvalo yer shari qanday shaklda ekanligini bilib olishimiz kerak. Bu haqida oddiy xalqdan tortib, olimlar ham bahs yuritishgan. Uni dastlab turli ko'nishda bo'lgan deb tasavvur qilishgan. Siz bu haqida 3- sinf darsligingizdan ma'lumotga egasiz. Yer sharini- koptokka, sharga o'xshatish mumkin, ya'ni u dumaloq shaklda bo'ladi. Yer shari haqida dastlabki ma'lumotlarni, qarashlarni olimlar aytishgan. Bobomiz Abu Rayhon Beruniy “ Yer dumaloq shaklda ekanligini, cheksiz ummon ortida davlat borligini” aytib o'tganlar. Yer shari globus shaklini yasagan. unda suv va quruqlikni aniq belgilab berganlar. Shunga ko'ra Yer shari- globus- yerning kichraytirilgan shaklidir. (bu ma'lumotlar- electron darslik yordamida, slayd namoishi bilan to'ldiriladi) yer belbog'I, ekvator, yer o'qi, dunyo tomonlari haqida ham ma'lumotlar beriladi.

bizni boqadi





IV. Topshiriqlar jamlanmasi:

1- topshiriq

Guruhlar uchun globus beriladi. Ular globusdan foydalanib, yer yuzasida joylashgan davlatlar, quruqlik, suvlar qayerlarda joylashganlarini qo'g'ozga markerlar yordamida joylashtiriladi.

2- topshiriq:

O'quvchilar endi yerning belbog'I ekvatorida joylashgan davlatlarni yozadilar. Bunda tezlik va ahillik muhim o'rin tutadi. Topshiriqlar bajarib bo'lgach, guruhlar taqdimot o'tkazadilar. O'qituvchi guruhlar bajargan ishlarini umumlashtirib, bergan ma'lumotlarini to'ldirib, o'quvchilar ishi baholanadi, g'olib guruh aniqlanadi.

V. Yangi mavzuni mustahkamlash:

O'quvchilarga tarqatmalar globus ortiga yozilgan savollar beriladi.

- yer shari qay shaklda?
- Yer yuzasini ko'proq nima tashkil etadi?

- Yer o'z o'qi atrofini qanday muddatda aylanib chiqadi.
- Yil fasllari qanday hosil bo'ladi. Tun va kun qanday hosil bo'ladi?
- Ekvator soda qilib qanday nomlanadi?
- Globus nimaga aytiladi?
- Bobomiz bu haqida nimalar deganlar.

Shu kabi savollar berilib, o'quvchilar bilimlari mustahkamlanadi.



VI. Dars yakuni va o'quvchilar bilimini baholash:

Darsda faol fikrlari bilan guruhlar ishida o'zining mustaqil fikrlarini aytaolgan o'quvchilar baholanib, rag'batlantiriladi.

O'zgalar fikrini tilayolgan, kelishib, hamkorlikda ishlagan faol guruh ham rag'batlantiriladi.

Uyga vazifa: Darslikda berilgan topshiriqlarni bajararish va savollarga javob yozish, mavzuni o'qib gapirishga tayyorlanish. Atlas va yozuvsiz xaritada yeri shari bilan ishlash. Joylarni aniq va to'g'ri belgilab kelish.

Sana:

Sinf: 4

Fan: Tabiatshunoslik

Mavzu: Cho'llar

Maqsad: Cho'l zonasi va tabiati haqida ma'lumot berish;

O'zaro kelishib, faollikda harakat qilish hislatlarini shakllantirish, tabiatimizni sevishga o'rgatish;

Darslik bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish;

Dars turi: Noan'anaviy

Dars uslubi: aqliy xujum, fikrlar yig'indisi, suhbat, ko'rgazmalilik.

Dars jihozi: fikrlar yozilgan tarqatmalar, ko'rgazmali qurollar, taqdimot uchun jihozlar.



Darsning borishi:

No	Darsning bosqichlari	Belgilangan vaqt
1	Tashkiliy qism	2
2	O'tilgan mavzuni so'rash va mustahkamlash	12
3	Yangi mavzu bayoni	20
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	9
5	Uyga vazifa berish va o'quvchilarni baholash	2



I. Tashkiliy qism:

- a) Salomlashish
- b) Davomatni aniqlash
- c) Jurnal bilan ishlash
- d) O'lkamiz tabiati haqida suhbatlashish

II. O'tilgan mavzuni so'rash va mustahkamlash:

O'tilgan mavzu savol- javob orqali mustahkamlanadi.

- O'rmon' tabiati haqida so'zlab bering?
- O'rmon zonasida qanday hayvonlar o'sadi?
- O'rmonda qanday o'simliklar o'sadi?
- O'rmon zonasida o'sadigan daraxt va o'simliklardan insonlar nima maqsadda foydalanishadi?
- O'rmon turlarini sanab bering?
- Asalarichilik bilan o'rmonda kimlar shug'ullanadi?
- O'rmonni nima uchun yashil dorixona deb atashadi?

O'quvchilar javoblarini umumlashtirilib, o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlar mustahkamlanadi.

III. Yangi mavzu bayoni:

Yangi mavzu va dars maqsadi e'lon qilinadi.


O'quvchilarni guruhlarga bo'linadi. O'quvchilar topshiriqlarni bajaradilar, bajarish davomida o'zaro kelishib, hamjihatlikda ishlaydilar. O'qituvchi mavzuni so'zlab beradilar.

Tekisliklarda cho'l, dasht va o'rmonlar bo'ladi. O't o'simliklari cho'lda siyrak bo'lsa, dashtda qalin bo'lib o'sadi. O'rmonda esa qalin o'tlardan tashqari, daraxtlar ham ko'p bo'ladi.yer yuzining aholi yashaydigan joylarida yillik yog'in miqdori 500-1000 mm atrofida bo'ladi. Ayrim joylarda juda kam yog'in yog'adi, yillik yog'in miqdori 200mm dan oshmaydi,oqar suvlar ham yo'q. bunday joylar qurg'oqchil bo'lib, o'simliklar yaxshi rivojlanmaydi.

O'simliklar yaxshi rivojlana olmaydigan qurg'oqchil yerlar - CHO"L deb ataladi.



Cho'l qumli,gilli yoki toshli bo'ladi. Qumli cho'lda shamol qumlarni suradi, do'nglik hosil qiladi. Bunday do'nglik *barxan* deb ataladi. Gilli cho'llarda qotgan va yorilib ketgan zarang tuproq-*taqir* yerlar mavjud.cho'l issiq va qurg'oqchil bo'lganligi sababli o't-o'simliklar kam uchraydi.saksovul,yantoq kabi o'simliklar mavjud bo'lib, ildizi juda uzun bo'lib,yer osti suvlaridan bahramand bo'ladi.



O'lkamiz hududida yuqorida kabi cho'llar mavjud.Cho'llarda yoz mavsumi 5- 6 oy davom etib, havo harorati soya joyda +50 °C gacha ko'tariladi, qum esa +80°C gacha qiziydi. Bu davrda yog'in yog'maydi. Keng cho'llar ustida issiq shamol esib, o'zi bilan qum va changlarni olib keladi. Bunday sharoit o'simlik va hayvonlar uchun halokatlidir. O'lkamiz cho'llarida bahor boshlarida va kuz

oxirida oz miqdorda yomg'ir yog'adi. Qishda ob- havo harorati - 20°C sovuq bo'lib qor yog'adi. Cho'l tabiati haqida hayvonot olami, o'zlashtirilgan yerlar haqida taqdimot orqali tushuntiriladi. (Atlas bilan ishlash)

Mavzuni to'liq o'zlashtirishlari uchun topshiriq beriladi.

Topshiriq-1

Har bir guruhga izohli fikr berilgan tarqatmalar berilgan. Ushbu fikrlarni muhokama qilib, kelishilgan holda to'g'ri deb topgan bo'lsa, fikr yozilgan kartochkaga rost yoki yolg'on deb yozib qo'yadilar.

Tarqatmalardan namunalar:

- Cho'l zonasida barxan va taqir yerlar bo'ladi.
- Cho'lda yoz issiq bo'lib, yog'ingarchilik kam bo'ladi.
- Cho'lda bo'g'ma ilon, kapchabosh ilon, qora cho'l iloni, qalqonsimon ilon ko'p uchraydi.
- Cho'lda yoz 9 oy davom etadi.
- O't o'simliklari ko'p o'sadigan joy adir deb ataladi.
- Cho'lda olma, anor kabi mevali daraxtlar ko'p uchraydi.
- Cho'lda tulki, bo'ri, toshbaqa, yumronqoziq, jayra, bo'rsiq, tipratikanni ham uchratish mumkin.
- Cho'llarda umuman qushlar uchramaydi.

Javoblar umumlashtiriladi. O'quvchilarning javoblari tekshiriladi. Javoblar guruhlar orasida almashtirilib, + yoki - belgisini qo'yib, kamchiliklar aniqlanadi. O'qituvchi qaysi o'rinlarda ko'proq o'qib, o'rganishlari kerakligi aytib o'tiladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Mavzuni o'zlashtirganlik darajasi savollar yordamida tekshiriladi.

- Berilgan savollarga javoblarni belgilashingizda qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz?
- Qaysi savol yuzasidan kelishish qiyin bo'ldi?
- Guruh a'zolari qanday kelishib, javoblarni belgiladingiz?
- Nechta noto'g'ri ma'lumotga ega ekansiz?
- Qaysi tasdiqning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi aniqlay olmadingiz?
- Ko'proq ma'lumotga ega bo'lish uchun nimalar qilish kerak bo'ladi?

O'quvchilar javoblariga o'qituvchi o'z fikrlari bilan to'ldirib borib, bilimlar mustahkamlanadi.

V. Uyga vazifa berish va o'quvchilarni baholash:

Cho'lda o'sadigan o'simliklar va cho'lda yashaydigan hayvonlar rasmini chizib kelish. O'quvchilarning savollarga bergan javoblari, guruhlarda o'zgalar fikrini tinglab, kelishib javob berganlari hisobga olinib, baholanadi. Yozuvsiz xaritada o'lkamiz hududidagi qumli cho'larni sariq rangga bo'yab kelish

Sinf:4

Mavzu: Tabiatga g'amxo'r bo'ling!

Vaqt:45 daqiqa

Dars nomi: Tabiatni asrash burchimiz!

Maqsad: Ta'limiy: tabiat va inson uzviy aloqada bo'lishi haqiqagi

tushunchalarini shakllantirish;

Tarbiyaviy:ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;

Rivojlantiruvchi: tabiatni asrash va tabiatga g'amxo'rlik qilish

muhimligini,o'z hissasini qo'shish kerakligi haqiqagi fikrlarini,

ko'nikma,malakalarini rivojlantirish;

Dars turi: Noan'anaviy

Dars tipi: Aralashgan

Dars uslubi: tushuntirish, aqliy hujum,ko'rgazmalilik,murojijatnoma mashqi,xaritalar mashqi

Dars jihozi: Har bir o'quvchi uchun A-4 qog'ozlar,markerlar,rangli qalamlar, so'zlar yozilgan tarqatmalar,mavzuga oid rasmlar, slaydda mavzuga mos ma'lumotlar bazasi, kompyuter,proyektor,xarita

Dars jarayoni:

1. Tashkiliy qism: (3 daqiqa)

a) Salomlashish

- b) Davomatni aniqlash
 - c) Jurnal bilan ishlash
 - d) Salomatlik daqiqasi(Mavzuga moslab)
2. O'tgan darsni takrorlash; (5 daqiqa)

O'tgan darsda o'tilgan "Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston respublikasi chegaralarini haqida so'rab, o'quvchilar bilan xarita bilan ishlanadi. So'ngra o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi.

- O'zbekiston ma'muriy xaritasidan Xorazm viloyati va Qoralpog'iston Respublikasi chegaralarini ko'rsating
- Bu o'lkalar iqlimini tasvirlab bering
- Bu o'lkalarda qanday o'simliklar o'sadi
- Bu o'lkalarning hayvonot olamini gapirib bering
- O'qituvchi o'quvchilr javobini umumlashtirib, faol o'quvchilarni rag'batlantirib, o'tgan mavzuni yakunlaydi.

3. Yangi mavzu bayoni: 10 daqiqa

Yangi mavzuni e'lon qilish bilan birga o'qituvchi, darsning maqsadini ham e'lon qilib o'tadi. O'quvchilarga bittadan A-4 qog'ozlari tarqatiladi.

Topshiriq-1 (murojaatnoma mashqi)

Bunda har bir o'quvchi murojaatnoma yozadilar. O'qituvchi har bir o'quvchigakartochkalar tarqatiladi.bu kartochkalarda tabiatning qaysi valkili yozilgan bo'lsa, shuning nomidan "Insonlarga murojaatnoma" yozish kerakligi tushuntiriladi. O'qituvchi o'quvchilarga hozirgi kunda inson tomonidan tabiatga ko'p zarar yetkazilayotganligi va murojaatnomani yozayotganda shularni e'tiborga olish kerakligini, tabiat

vakili nomidan yozilgan murojaatnoma insonlarga tabiatni avaylash haqida chaqiruv bo'lishi kerakligini, murojaatnomani rasm bilan ham bezatish mumkinligini aytib o'tadi.

Topshiriq-2 10 daqiqa

O'quvchilar o'zlari yozib bo'lgan murojaatnomani devor bo'ylab ketma-ket ilib chiqadilar. Hamma o'quvchilar o'rinlaridan turib devorga ilingan murojaatnomalarni o'qib, V belgisini eng zarur va bugungi kunda dolzarb deb o'ylagan 3 ta murojaatnomaga qo'yadilar.

O'qituvchi tomonidan 3-4 ta eng ko'p belgi olgan murojaatnomalar o'qib eshittirilib, topshiriqqa yakun yasaladi. (3 daqiqa)

4. Yangi mavzuni mustahkamlash: 12 daqiqa

O'qituvchi o'quvchilariga tezkor aqliy hujum savollarini beradi.

- Bu murojaatnoma sizga nimasi bilan ko'proq ta'sir qildi?
- Murojaatnomani yozayotganingizda nimalarni his qildingiz?
- Nima uchun daraxt shoxlarini sindirmaslik kerak?
- Tabiat va inson o'rtasida qanday bog'liqlik bor?
- Suvdan oqilona foydalanish nimalarga olib kelish mumkin? Bu darsdan qanday xulosaga keldingiz?

O'qituvchi shu o'rinda mavzuga mos tarzda tayyorlangan slaydlarni namoyish etadi. O'quvchilar ko'rganganlarini bilganlari bilan boyitib, darsni mustahkamlaydilar.

5. Uyga vazifa berish va o'quvchilar bilimni baholash: 2 daqiqa

O'quvchilarning berilgan savollarga ilmiy javoblari,yozgan murojaatnomasi hisobga olinib baholanadi,faol o'quvchilar ham rag'batlantiriladi. Uyga vazifa:"Tabiatni asrang!" mavzusida rasm ishlab kelish, darslikdagi matni o'qish, savollarga javob topish, yana qanday narsalarga, tabiat in'omlariga murojnatnoma yozish kerakligini bilib kelish.